

**“4K” MODELI ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING
KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH**

Najimatdinov Muxtar Koshkinbay uli

Osiyo xalqaro universiteti o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlanirishda “4K” modeli – kreativlik, kommunikatsiya, kollaboratsiya va kritik fikrlashning ahamiyati tahlil qilinadi. “4K” modeli zamonaviy ta’limda muhim kompetensiyalarini shakllantirishga yordam beradigan tizimli yondashuv bo‘lib, o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlanirishda samarali vosita sifatida qaraladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mazkur model asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini oshirishga, mantiqiy fikrlashini rivojlanirishga va ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Kreativ fikrlash, “4K” modeli, boshlang‘ich ta’lim, kommunikatsiya, kollaboratsiya, kritik fikrlash.

Abstract: This article analyzes the importance of the "4K" model - creativity, communication, collaboration and critical thinking in the development of creative thinking of elementary school students. The "4K" model is a systematic approach that helps to form important competencies in modern education, and is considered an effective tool for developing independent and creative thinking of students. The results of the research show that lessons organized on the basis of this model serve to improve students' problem-solving skills, develop their logical thinking, and increase their social activity.

Keywords: Creative thinking, "4K" model, elementary education, communication, collaboration, critical thinking.

Kirish

Bugungi kunda ta’lim jarayonida o‘quvchilarning nafaqat an’anaviy bilimlarni egallashi, balki mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va kreativ yondashuvga ega bo‘lishi muhim hisoblanadi. Shu sababli, zamonaviy pedagogikada “4K” modeli keng qo‘llanilmoqda. Ushbu model kreativlik, kommunikatsiya, kollaboratsiya va kritik fikrlash kabi asosiy kompetensiyalarini o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida mazkur yondashuv o‘quvchilarning qiziqishini oshirib, ularning ijodiy salohiyatini rivojlanirishga xizmat qiladi.

Maqolada “4K” modelining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlashiga ta’siri tahlil qilinadi va bu modelni amaliyatga tatbiq etish usullari muhokama qilinadi.

Ta’limning ustuvor vazifalaridan biri, bu ta’lim oluvchi ongu shuurida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirish, unda kelajakda jamiyatda o‘z munosib o‘rnini topishi uchun amaliy hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirish bilan o‘quvchi yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga faol kirishishiga zamin hozirlashdir. Shu nuqtayi

“O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS: INSON, FAN VA IQTISODIYOTNING YANGI UFQLARI”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy online konferensiyasi

10-Mart, 2025-yil

nazardan, ta’lim-tarbiya jarayonini nafaqat ta’lim oluvchilarga fanlar bo‘yicha bilim berish, balki egallagan bilim va malakalarini amalga tatbiq etish, ulardan hayotda foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirish ham asosiy vazifalardan biridir.

Pedagogika fani nazariyasi va amaliyotida “kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalari bir vaqtida qo‘llanilmoqda. Kompetensiya ta’lim oluvchilarning tayyorgarligiga avvaldan qo‘yilgan talablarni anglatsa, kompetentlik shaxsning mavjud sifatlari va qo‘yilgan doiraga, sohaga munosabati bo‘yicha shaxs faoliyatining minimal tajribasi bilan belgilanadi.

Respublikamiz ta’lim sohasi mutaxassislari XXI asrning eng asosiy to‘rtta kompetensiyalarini “4k”ni (muloqot va muomala madaniyati, tanqidiy fikrlash qobiliyati, kreativlik fazilati, guruhda ishlash (jamoani his qilish), shakllantirish dolzarb masala ekanligini ta’kidlashmoqda.

Ushbu kompetensiyalar barcha kasblarni mukammal egallah, mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lish uchun jiddiy ahamiyatga ega. Ish beruvchilar bilan muloqot jarayonida shunisi ma’lumki, soft skills, ya’ni barcha kasblarni egallahning asosi bo‘lgan-hayot davomida paydo bladigan muammolarni hal qilish, boshqa insonlar, hamkasblar bilan til topishib, ishlab ketish malakalarini shakllanganligi ularning eng asosiy talabiga aylangan. Ushbu malakalarni qandaydir o‘quv kurslarda yoki treninglarda shakllantirib bo‘lmaydi, bu malakalar bolalikdan, butun hayot davomida shakllanib boradi. Ayniqsa, ushbu malakalarni shakllantirishga boshlang‘ich sinfdan jiddiy ahamiyat berish zarur.

Yana shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, zamonaviy ish beruvchilar yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan malakalarning, kompetensiyalarning shakllanganligi ular uchun asosiy ish faolyatlaridagi malakalaridan muhimroq ekanligini ta’kidlashmoqda.

Xulosa

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirish ta’lim jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biridir. “4K” modeli o‘quvchilarga mustaqil fikrlash, jamoa bilan ishlash, o‘z fikrlarini aniq ifodalash va muammolarni innovatsion yondashuv orqali hal qilish kabi qobiliyatlarni shakllantirishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mazkur model asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini oshirish bilan birga, ularning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini ham kuchaytiradi. Shunday qilib, boshlang‘ich ta’limda “4K” modelidan foydalanish zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akbarovna, I. S., & Lola, I. (2025). IJTIMOIY PEDAGOGIK FAOLIYATDA TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNGA QARATILGAN KREATIV G’OYALAR, TAKLIFLAR VA YECHIMLAR, 7(75), 201-204.

**“O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS: INSON, FAN VA IQTISODIYOTNING
YANGI UFQLARI”**

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy online konferensiyasi

10-Mart, 2025-yil

2. Икромова, С. А., & Джумаева, Ф. Б. (2025). ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ СТРУКТУРА В УЗБЕКИСТАНЕ И ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(2), 256-262.
3. Ikromova, S. A. (2025). ART TERAPIYANING RUHIY KASALLIKLARNI DAVOLASHDAGI O‘RNI VA SAMARADORLIGI. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(2), 154-157.
4. Akbarovna, I. S. (2024). STRESS, DEPRESSIYA VA BOSHQA RUHIY HOLATLARNING PSIXOLOGIYADAGI O'RNI. *Science, education, innovation: modern tasks and prospects*, 1(3), 7-13.
5. Akbarovna, I. S. (2023). GENERAL SIGNS OF A TEENAGER’S ORIENTATION TOWARD DESTRUCTIVE BEHAVIOR. *International scientific review*, (XCI), 19-20.